

DAVLAT VA HUQUQNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6502323>

Erkinova Zarnigor Ismoilzoda

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi

"Sud huquqiy faoliyati" 1- kurs talabasi

Annontatsiya: *ma'lumki, demokratik huquqiy davlatni rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz shakllaantirib bo'lmaydi. Endi demokratik huquqiy davlatning tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari, va uning tuzilishiga to'xtalib o'tamiz.*

Kalit So'zlar: *jamiyat, demokratik, ommaviy axborot, insonparvarlik.*

Davlat va huquqning rivojlanish istiqbol va yo'llari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, shuni qayd qilish loimki, bugungi kunda jahonning aksariyat rivojlana davlatlari demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bormoqda. Jumladan, Avstriya, Germaniya, Shvetsariya, va Yaponiya kabi davlatlar demokratik huquqiy davlatni shakllantirish borasida katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Biz tanlab olgan yo'l ham demoklarit yo'l bo'lib Konstitutyamizning muqaddimasida belgilab qo'yilgan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishdir.

O'zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda odamlar o'z qobiliyati va ehtiyojlarini to'la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e'tibor berildi. Negaki, busiz adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi. Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri, turmushi, jamiyatdagi o'rni uning o'ziga, salohiyatiga mehnat qilish istagi, oqil-u uddaburonligiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining barcha muhim jihatlarini qamrab oluvchi, uning ham institutsional, ham funksional yo'nalishlarini ifodalovchi ilmiy modelni yaratish vazifasi turibdi. Mohiyat jihatidan «*fuqarolik jamiyati*» iborasi ilmiy adabiyotlarda o'ziga xos alohida mazmun-ma'no kasb etib, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yuqori darajada kamol topganligini, mukammallikka erishganligini anglatadi.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Fuqarolik jamiyati huquq va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Jamiyatning «*fuqarolik*» sifati bilan tavsiflanishida boy mazmun va teran ma'no bor. «*Fuqarolik*» (erkin inson) degan sifat belgisida yuqori taraqqiy topgan, komillikning cho'qqisiga erishgan jamiyatning mohiyati aks etadi. Muayyan davlatga mansub bo'lgan fuqarolar yashaydigan mamlakat hali fuqarolik

jamiyati, erkin va komil insonlar jamoasi mavjudligini anglatmaydi. Xuddi shuningdek, ma'lum huquqiy tizim mavjud bo'lgan, huquqiy hujjatlar majmui amal qilayotgan har qanday davlat «huquqiy davlat» deb e'tirof etilavermaydi

Huquqiy davlat fuqarolik jamiyati shaklidir va davlat huquqiy bo'lnshi uchun kuchli, hayot kechirib keta oladigan, erksevar, har qanday antidemokratik avtoritar tajivuzlarga qarshilik ko'rsata oladigan jamiyat bo'lish« kerak. Buning o'chun esa avvalo Davlat hokimiyatini demokratiya, o'znni o'zi boshqarish va xalqning to'la Hokimligi prinsiplari asosida qayta tashkil etish zarur. Huquqiy davlatga borish yo'lida, avvalo jamiyatga ma'muriy buyruqbozlik bilan rahbarlik qilishni, byurokratizmni, saylab qo'yiladigan organlar ustidan ijro etuvchi organlar hukmronligini, shaxsning, jamoalarning siyoeiy jihatdan o'z-o'zini ifodalash shakllarining rivojlanmaganligani yengib o'tish, odamlarning davlatga bo'lgan munosabatlarini (unga doimo zo'ravonlik, majburlash apparati deb qarab kelingan edi) qayta ko'rib chiqish zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, olamshumul va tarixiy o'zgarishlarni tahlil etar ekanmiz, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini naqadar to'g'ri tanlaganligiga yana bir bora ishonch hosil qilamiz. Islohotlar izchil, tizimli va bosqichma-bosqich olib borilayotganligi, har bir o'zgarish aniq maqsadni ko'zlagan holda, mukammal ishlangan konsepsiya va dasturlar asosida amalga oshirilayotganligi o'z samara va natijalarini bermoqda. Istiqloq yillarida mamlakatimizning sud-huquq tizimi tubdan yangilandi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqib, sud-huquq tizimidagi islohotlar insonlarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquq hamda erkinliklarini himoya qilinishini ta'minlashga va kafolatlashga xizmat qiladi. Bu Konstitutsiyamizning 44-moddasida "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi" mustahkamlangan.

Bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimizning barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlab o'tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent—2021
2. Гражданское общество, правовое государство и право («круглый стол») // Государство и право. – 2002. – №1. – С. 19.
3. Теория государства и права / Под ред. Н.И.Матузова и А.В.Малько. – М.,